

## **BOSHLANG’ICH TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI**

*Urinova Barokatxon Obidovna  
Andijon viloyati Andijon tuman  
48- maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada hozirgi kunda ta’lim sifatini oshirishda interfaol usullardan foydalanishning samaradorligini oshirish, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv, darslarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni oquv jarayoniga qo’llash yo’llarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri ekanligi aytib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** boshlang’ich ta’lim, interfaol metod, samaradorlik, ta’lim jarayoni, umumiy va xususiy jihatlar, metodlar.

**Аннотация:** В статье отмечается, что повышение эффективности использования интерактивных методов, инновационный подход к образовательному процессу, использование педагогических и информационных технологий на занятиях и разработка способов их применения в образовательном процессе являются одними из наиболее актуальных вопросов.

**Ключевые слова:** начальное образование, интерактивный метод, эффективность, учебный процесс, общие и частные аспекты, методы.

**Abstract:** The article notes that increasing the efficiency of using interactive methods, an innovative approach to the educational process, the use of pedagogical and information technologies in the classroom and the development of methods for their use in the educational process are among the most pressing issues.

**Key words:** primary education, interactive method, efficiency, educational process, general and particular aspects, methods.

“...Umumta’lim maktablaridagi ta’lim sifati poytaxtda ham, olis qishloqlarda ham yuqori bo’lishi shart. Buning uchun chekka hududlarda maktablarni malakali kadrlar bilan ta’minlash, ta’lim sifatini yaxshilash bo’yicha alohida dastur amalga oshiriladi...”-deb Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’lim sifatiga alohida e’tibor berdi.

Hozirgi kunda ta’lim sifatini oshirishda interfaol usullardan foydalanishning samaradorligini oshirish, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv, darslarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni oquv jarayoniga qo’llash yo’llarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biriga aylanib qoldi. Shunga binoan o’qituvchi har bir akademik soatni kelajak avlod uchun ahamiyatini chuqur anglab, kreativ yondashgan holda tashkillashi lozim.

“...Bugungi kunda «Farzandlarimiz bizdan ko’ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo’lishlari shart!» degan hayotiy da’vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o’rin egallagan...”

Ta’lim jarayonining sifati, tarkibidagi umumiy va xususiy jihatlarni, ularning o’zaro bir-birini to’ldirishi va boyitib borishi muhim masalalardan hisoblanadi. Shu – nuqtai nazardan kelib chiqib, boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan va interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati asoslab o’tish joizdir. Avvalo interfaol metod tushunchasi haqida to’xtalib o’tamiz.

Interfaol metodlar – o’quvchilarning o’zaro muloqati va o’zaro ta’siri natijasida dars jarayonini amalga oshiruvchi usullar yig’indisidir. “Interaktiv” tushunchasi inglizcha so’zdan olingan bo’lib, inter – bu “o’zaro”, akt – “harakat, ta’sir, faollik” ma’nolarini bildiradi. Interfaol metodlar orqali tashkil etilgan darslar o’quvchilarni ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrlarini yozma yoki og’zaki bayon etishga chorlaydi.

Interfaollik – o’qituvchi va o’quvchilar faoliyatida sodir bo’ladi. Boshlang’ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanishning bosh maqsadi ta’lim jarayoni uchun qulay sharoit va vaziyatlar yaratish orqali o’quvchilarning ijodiy, faol, erkin fikrlashi uchun muhit yaratib berishdan iboratdir. Boshlang’ich ta’limda interfaol metodlarni qo’llashda o’qituvchining o’rni beqiyosdir. O’qituvchi interfaol metodlarni tanlashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- o’qitish usullarining chambarchas bog’liq bo’lishiga;
- maqsadga erishishda o’qituvchi va o’quvchi o’z aksini topishi shart ekanligiga;
- o’quvchilarning individual psixologik xususiyatlariga;
- berilayotgan ma’lumotlarning izchilligiga va tizimligiga.

Hozirgi kunda boshlang’ich ta’limda keng qo’llanilayotgan interfaol metodlar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bular: “Klaster”, “BBB”, “Aqliy hujum”, “FSMU”, “Bumerang”, “Muloqat treningi”, “Blits- o’yin”, “Dumaloq stol”, “Zanjir”, “Munozara”, “Akvarium”, “Charxpalak” va kichik guruhlarda ishlash metodlaridir.

Boshlang’ich ta’limda ushbu metodlar qo’llanilganda:

- muayyan nazariy bilimlarni puxta o’zlashtirilishiga;
- vaqtdan unumli foydalanishiga;
- o’quvchining erkin fikrlashi shakllanishiga;
- dars jarayonida o’quvchilarning faol ishtirok etishiga;
- o’zgalar fikrini tinglay olishiga;
- bildirilgan fikrlardan xulosa chiqarish ko’nikmasi shakllanishiga ;
- o’quvchining kreativ xususiyatlarini shakllanishiga olib keladi

Yaqin yillargacha darslar faqat an’anaviy tarzda o’tib kelingan. Bu esa o’qituvchini faollashtirib, o’quvchini passivlashishiga sabab bo’ladi. To’g’rirog’i, o’quvchiga erkin ishlash uchun imkon bermaydi. Noan’anaviy yo’lda o’tilganda esa, o’quvchi o’z ustida ishlashga, shaxsiy “Men” ni his qilishiga va o’z imkoniyatlarini butun sinf jamoasi oldida ko’rsatishga majbur bo’ladi. Shunday o’qituvchi va o’quvchi faoliyatini yengillashtiruvchi interfaol usullardan biri “Zinama-zina” usulidir.

Ushbu usulning o’ziga xos qulaylik taraflari mavjud bo’lib, unda hajm jihatdan katta materialni tezkor shaklda o’zlashtiriladi, o’quvchi tasavvurini kengaytiradi, o’quv jarayonida o’quvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantiradi, eng muhimi, fanga va mavzuga qiziqishini o’stiradi. Ushbu usul orqali o’quvchilarning ijobiy va salbiy qirralarini bilib olish, ularning nozik jihatlarini o’rganish, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlab olish mumkin. Guruhda ishlagan bola har tomonlama rivojlanadi. “Zinama-zina” usuli qiziqarli va keng ko’lamda qo’llanilishi mumkin bo’lgan usullardan bo’lganligi uchun o’quvchini bir zumda o’ziga jalb qila oladi. Shuning uchun darslarda bu usuldan foydalanish samarali natija beradi, deb o’ylaymiz.

Shunday qilib boshlang’ich ta’limda interfaol metodlarni qo’llashda o’qituvchi ta’lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo’lib, bunda boshqaruv maqsadi ta’limning

ob’ekti va sub’ekti sifatida o’quvchiga yo’naltiriladi. Demak, interfaol metodlar ta’lim mazmuni, usul, shakl va vositalar asosida yuzaga keladi.

Boshlang’ich ta’limda interfaol metodlar yana shunisi bilan ahamiyatli, o’qituvchi o’quvchining fikrini, javobini hech qachon keskin rad etmaydi, faqat vaqti bilan to’g’ri xulosani aytib ketadi. Natijada o’quvchi xatosini o’zi tushunib yetadi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xatolarni oldini oladi. Interfaol metodlar o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi o’zaro hurmatga asoslanadi. O’qituvchi qanday bo’lmasin o’quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi. Shu bilan o’quvchilarni bir-birini tinglashga o’rgatadi. Qo’shimchalar “sizning fikringizga qo’shilgan holda qo’shimcha qilamiz”, “bizning ham ba’zi fikrlarimiz bor” kabi so’zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o’quvchi o’zini hurmat qilinayotganini sezadi. Bunday sharoitda hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Shu bilan birgalikda u boshqalarni hurmat qilishga o’rganadi.

Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, interfaol metodlarni qo’llab dars o’tish bugungi kun ta’limining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki, ta’lim jarayoniga qo’yilayotgan asosiy talablardan biri an’anaviylikdan ya’ni bir xillikdan chekinib, har bir darsimizda har xil usullardan foydalanib o’tishni taqozo etadi. Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali o’quvchilarga berilayotgan ta’lim sifati yanada oshadi.

Biz boshlang’ich ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishda quyidagilarga e’tibor qaratishimiz kerak:

- o’quvchi shaxsining rivojlanishiga;
- ta’limga oid me’yoriy xujjatlarga;
- mustaqil mutolaa qilishiga;
- o’qish asosida bilim olishiga;
- o’z-o’zini anglab yetishiga;
- o’z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashiga;
- o’z burchiga mas’uliyat bilan yondashishiga;
- o’zi va o’zgalar mehnatining qadriga yetishiga;
- mustaqil fikrlay olishiga;
- o’z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishiga;
- o’z oldiga maqsad qo’ya olishiga;
- o’quv mehnatiga o’zida hohish-istak uyg’ota olishiga;
- har qanday vaziyatda faollik ko’rsata olishiga;
- tezkor fikrlay olishiga;
- manbalardan unumli foydalanishiga;
- boshqalar fikrini hurmat qilishiga;
- o’quvchilar dunyoqarashiga;
- ma’lumotlarni esda saqlab qolishiga.

Interfaol metodlarning bosh maqsadi o’quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o’quvchining faol hamda erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. Interfaol metodlar asosida o’tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, ushbu jarayonda o’quvchi chetda qolmaydi, ya’ni bilgan, o’ylagan fikr va javoblarini ochiq oydin bildirish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

Boshlang’ich ta’limni interfaol metodlar orqali tashkil etishda quyidagi o’qitish muhiti yaratiladi:

- O’qituvchi va o’quvchi o’rtasida sog’lom muhit yaratiladi;
- O’quvchilar o’qish ishlarida bir-biriga ko’maklashadi;
- O’quv materiallarini to’la o’zlashtiradilar;
- Ijodkorlikka rag’bat beriladi;
- O’quvchilarning har bir harakati e’tiborga olinadi;
- Fikr almashishga imkoniyat yaratiladi;
- Nutqiy rivojlanish rag’batlantiriladi;
- Ma’lumotlarni mustaqil o’rganish ko’nikmalari shakllanadi.

Hozirgi kunda boshlang’ich ta’limda o’quvchilarni bilim olishlari bilan birgalikda ularni erkin va mustaqil fikrlashga o’rgatish talab qilinmoqda. Zero, bilimga va mustaqil fikrga ega bo’lgan yoshlardan yomonlik chiqmaydi, ularda o’zgalarga nisbatan hurmat paydo bo’ladi, vatanni sevadi, ona tabiatga ongli munosabatda bo’ladi va kelajakka umid bilan qaraydi. Ushbu fazilatlarini o’quvchilarda tarkib toptirishda interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

“...yoshlarimiz o’z oldiga katta marralarni qo’yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko’mak berish - barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo’lishi zarur. SHundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro’yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

SHu maqsadda **“YAngi O‘zbekiston - maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”**, degan g’oya asosida keng ko’lamli islohotlarni amalga oshiramiz...”- deb fikr bildirgan Sh. Miromonovich.

Darsda didaktik materiallarning zarurligi boshlangich sinf oquvchilari ruhiy holatini oziga xosligi va oqish darslarining vazifalaridan kelib chiqadi. Kichik yoshdagi bolalar tabiati ko’rgazmalilikni talab qiladi. Ular turli narsalarni, boyoqlarni, shakllarni korib fikrlaydilar. Darslarda didaktik materiallarga etibor berish orqali oquvchilarning nutqiy faolligi shakllantirishga, hayotiy va kitobiy voqea hodisalarni ongli ozlashtirishga orgatamiz. Boshlangich sinflar uchun turli ko’rgazmali qurollar mavjud. Bularni mehnat darsidagi mavzusiga mos bolgan turli narsalarning ozi, oquvchilar kuzatishlari davomida olgan taassurotlari va oqituvchining jonli nutqi oquvchilar uchun ko’rgazmali qurol hisoblanadi. Eng muhimi dars mavzusi va maqsadiga mos holda ko’rgazmalarni tanlay bilishdir. Oqish darslarida organiladigan asar matni birinchi orinda turadi. Ko’rgazmali qurollar esa ana shu asarni organishga yordam beradi.

Buning uchun mehnat darslarida tabiiy materiallar, chiqindi materiallari, gazlamalardan tayyorlangan ko’rgazmalarni, oqish darslarida oquvchilar nutqiy faoliyatni shakllantirish maqsadida foydalanish, fanlarning uzviyligi bilan birga oquvchilarning qiziqishini ortiradi. Oquvchilar bilim va tushunchalarni "oqish " darsligiga kiritilgan asarlardan oladilar. Ko’rgazmali qurol esa olgan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, bolalarni sezgirligini oshiradi, bilimlarni asosli bolishini taminlaydi. Shu bilan birga ko’rgazmalilik asar matnni oqilgan sozlar va ayrim iboralar manosini tushunishga yordam beradi. Darslikdagi barcha asarlarni organishda ko’rgazmalilik ana shunday muhim ahamiyatga ega. Boshlangich sinf mehnat darslarida tayyorlangan ko’rgazmalarning quyidagi turlaridan oqish va ona tili darslarida foydalanish mumkin: Tabiiy ko’rgazmalar, rasmlil ko’rgazmalar, obrazli ko’rgazmalar.


Bu jarayonda mehnat darsda o’rganilayotgan narsa va voqea hodisalarning aynan ozini tabiiy materiallardan yoki chiqindi materiallaridan foydalanib tayyorlash orqali oquvchilarning ogzaki va yozma nutqini shakllantirishimiz mumkin. Masalan,

ko‘rgazmalarning bunday turlariga turli xil tabiiy materiallarni toplab, yigib, ulardan qo‘y, it, tovuq va boshqalarni maketini hosil qilinishini korsatishimiz mumkin. Bulardan tashqari turli chiqindi materiallaridan applikasiya tayorlanib, darslarda ko‘rgazma sifatida foydalaniladi, bundan tashqari oqish darsini o‘tish jarayonida ogzaki tarzda matn yaratish ham mumkin. Bu orqali oquvchilarning qiziqishlari ortirilib, nutqiy faolliklari shakllanadi.

Obrazli ko‘rgazmalarning turiga turli rasmlar, portretlar, bezaklar, jadvallar, plakatlar, didaktik tarqatmalar, kinofilm va boshqalar kiradi. Bularga misol qilib oqish darsligida berilgan “Rostgoy bola”, “Ochko‘z sichqon”, “Aqlli bogbon”, “Hakka va uning bolalari”, “Tulki va turna”, “Chumoli va Tipratikan” asarini o‘rganishda ko‘rgazmalikning bu turidan foydalanish dars samaradorligi oshirilishida ahamiyatli hisoblanadi. Oquvchilar bu mavzularga tegishli ko‘rgazmalarni mehnat darslari jarayonida tayyorlab, bir-birlarining ishlari solishtiriladi. Bu orqali ularning mehnatga bolgan qiziqishlari shakllanadi. Bulardan tashqari hayvonlar, parrandalar, qushlar va ularning rasmlari oquvchilar tasavvurini boyitishda katta ahamiyat kasb etadi.

Oquvchilar bilan yangi pedagogik texnologiya asosida krassvord tuzish, gul yaproqlariga ozlari oqigan asar nomlarini yozish, quyosh nurlariga eng yaxshi so‘zlarni yozib chiqish kabi ustunlar ham ko‘rgazmalik orqali amalga oshirilishi mumkin.

O‘quvchilar “T-sxemasi” usuli orqali asar qahramonlari nutqini farqlash, ularni, ijobiy yoki salbiy jihatlarini ikki ustunga yozib chiqishlari talab etiladi.



Bu usul orqali oquvchilar oz nutqlarida qo‘pol va hunuk so‘zlarni ishlatmaslikka, muomala faoliyatiga amal qilishga harakat qiladilar. Bir-birlarining nutqlariga ham etibor berishni organadilar.

Oquvchilar oyinlari va kuzatishlar har xil ko‘rgazmalarni aralashtirib foydalanish hisobiga ko‘rgazmalarning turi ortib boradi. Oqish darslarida oquvchilarning nutq faoliyatini shakllantirishda asarlar mazmuniga mos oyinlarni ham tashkil etish mumkin. Bu bilan birga mehnat faniga bogliqligini tushuntirib borishimiz maqsadga muvofiqdir. Oqish darslarida ifodali oqish oquvchilarning nutq faoliyatini shakllantirishda asosiy ko‘rgazmali qurol sanaladi.

Bundan tashqari dars jarayonlarda magnit tasmlari, videofilmlar yoki kompyuterlardan foydalanish ham bugungi kunda zamonaviy texnologik ko‘rgazmalardan hisoblanadi. O‘rganiladigan mavzularni, ayniqsa sheriy asarlarni magnit tasmasiga yozib olish va dars jarayonida oquvchilarga uni eshittirish namunali nutq sifatida oquvchilar diqqatini oziga jalb etadi. Ayniqsa, darslikdagi A.Navoiyning hikmati sozlaridan magnit tasmlariga yozib, dars jarayonida mavzuga bogliq holda qo‘yib eshittirilsa o‘quvchilar

uchun xuddi shoirning o‘zi bu gaplarni gapirayotganday kuchli tasir qiladi. O‘quvchilarda nutq faoliyatini shakllantirishda mavzuga bog‘liq holda ayrim video lavhalardan ham foydalanish mumkin. Bunday video lavhalar bolalar va kattalar o‘rtasida muomala masalalariga mos bo‘lsa, ulardan dars jarayonida mavzu mazmunini yanada yorqinroq namoyon qilish maqsadida hamda fanlararo integratsiyalashni shakllantirishimiz mumkin boladi.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr 8 bet

2. Mirziyoyev.Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq.T.”O‘zbekiston NMIU. 2016 y.13-bet